



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA DOIR PEDAGOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING ILMIY TAHLILI

Alikulova Muxayyo Sherovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 75

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1535>

ANNOTATSIIYA

Mazkur maqola jahon tajribasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir pedagogik yondashuvlar tahliliga asoslangan bo'lib unda rivojlangan mamlakatlardan Belgiya, Ispaniya va Ukraina mamlakatlarining oila va oilaviy muammolari masalasi o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada Belgiya, Ispaniya, Ukraina va Fransiya mamlakatlar ilaviy birdamlik, qarindoshlik aloqalarining mustahkamligi va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyati jamiyatning barqarorligi kabi masalalar bo'yicha asosiy o'rinlarni egallay olishi mumkinligi izohlab o'tilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimli, kompleks va integrativ pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, ta'lim tizimida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, gender tengligi va reproduktiv salomatlik masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi hamkorlikning yo'lga qo'yilgani oilaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

madaniy xilma-xillik, ijtimoiy himoya, zamonaviy turmush tarzi, ajrimlar, iqtisodiy yetishmovchilik, farzandsizlik, nikoh, fuqarolik nikohi

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida jamiyatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan yoshlarning ijtimoiy yetukligi, ma'naviy qadriyatlarga sodiqligi va oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Oila — jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida inson kapitalini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ahamiyatga ham ega.

Rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar) yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilib, bu borada kompleks pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimi, psixologik xizmatlar, ijtimoiy institutlar va oilaviy maslahat markazlari orqali amalga oshiriladi. Xususan, oilaviy munosabatlarni madaniyatini shakllantirish, gender tengligi, reproduktiv salomatlik, konfliktologiya va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qoraladi.

O'zbekistonda ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Biroq rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish, ularning pedagogik mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud. Shu nuqta nazardan mazkur tadqiqot mavzusi ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir pedagogik yondashuvlarni o'rganish, ularning samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda milliy ta'lim tizimiga mos keluvchi takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar pedagogik, psixologik va sotsiologik yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida J. Coleman oilaning ijtimoiy kapitalni shakllantirishdagi rolini asoslab, yoshlarning ijtimoiylashuvida oilaning muhimligini ta'kidlaydi [1]. Unga ko'ra, oilaviy qadriyatlar yosh avlodning hayotiy qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasi yoshlarning xulq-atvori va oilaviy munosabatlarni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Ushbu nazariyaga ko'ra, yoshlar ota-ona va jamiyatdagi rol modellari kuzatish orqali oilaviy hayotga tayyorlanadi.

G. Becker esa oilani iqtisodiy institut sifatida tahlil qilib, nikoh va oilaviy qarorlarning iqtisodiy asoslarini yoritib beradi [3]. Uning tadqiqotlari yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini iqtisodiy barqarorlik bilan bog'laydi.

Yevropa mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda maktab va oliy ta'lim tizimida "life skills education" dasturlarining samaradorligi ko'rsatib berilgan [4]. Bu dasturlar orqali yoshlar muloqot, muammo yechish va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini egallaydi.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida esa oilaviy tarbiya va an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Bu esa yoshlarning oilaviy mas'uliyatni chuqur anglashiga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham ushbu yo'nalishda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, o'zbek pedagoglari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy tarbiyaning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar [6].

Shuningdek, so'nggi yillarda gender tengligi va reproduktiv salomatlik masalalari ham oilaviy tayyorgarlikning muhim komponenti sifatida qaralmoqda [7]. Bu borada xalqaro tashkilotlarning ilmiy hisobotlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kompleks yondashuvni talab etadi va bu jarayonda pedagogik, psixologik hamda ijtimoiy omillar o'zaro uyg'unlikda qaralishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv asosida bir qator nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganildi. Bunda ta'lim muassasalari, oila va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahlil va sintez metodi — rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar alohida o'rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashtirildi.

Qiyosiy (komparativ) tahlil metodi — AQSh, Germaniya, Yaponiya va boshqa mamlakatlar tajribasi o'zaro solishtirildi va ularning samaradorligi baholandi.

Kontent-tahlil metodi — ilmiy maqolalar, hisobotlar va normativ hujjatlar mazmuni chuqur o'rganildi.

Sistematik yondashuv — yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Induksiya va deduksiya metodlari — alohida faktlardan umumiy xulosalar chiqarildi va aksincha umumiy nazariyalar asosida amaliy natijalar izohlandi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF) tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar va ilmiy hisobotlardan foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchiligi va ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Mazkur metodologiya yordamida rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali pedagogik mexanizmlari aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir pedagogik yondashuvlar qiyosiy va tizimli tahlil asosida o'rganildi hamda quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

O'rganilgan mamlakatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni alohida fan yoki qisqa muddatli kurs sifatida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida tashkil etilishi aniqlandi. Xususan, maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda "hayotiy ko'nikmalar" dasturlari orqali o'quvchilarda muloqot madaniyati, hissiy

intellekt, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllantiriladi. Bu esa kelajakda oilaviy munosabatlarning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Belgiya, Ispaniya va Fransiya tajribasida ijtimoiy himoya tizimining rivojlanganligi yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashda muhim omil ekanini aniqlandi. Davlat tomonidan beriladigan moddiy yordamlar, ota-onalik ta'tili, bolalar parvarishi xizmatlari va oilaviy maslahat markazlari yoshlarning nikohga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Natijada oilaviy nizolar kamayishi va ajrimlar darajasining barqarorlashuvi kuzatiladi.

Ukraina tajribasi tahlili shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik sharoitida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ko'proq psixologik qo'llab-quvvatlash va moslashuvchan pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Bu yerda oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy ijtimoiy muammolar — migratsiya, iqtisodiy yetishmovchilik va farzandsizlik kabi omillarni hisobga olish zarurati mavjud.

Barcha o'rganilgan mamlakatlarda gender tengligi va reproduktiv salomatlik masalalariga alohida e'tibor qaratilishi aniqlandi. Ta'lim jarayonida ushbu yo'nalishlar bo'yicha beriladigan bilimlar yoshlarning oilaviy hayotga ongli va mas'uliyatli yondashuvini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilgan. Ta'lim muassasalari, psixologik xizmatlar, nodavlat tashkilotlar va oilaviy maslahat markazlari o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bu esa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining tizimlilikini ta'minlaydi.

Muhokama. Zamonaviy sharoitda talabalarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish - ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi va tarixiy-taraqqiyot jarayonida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining yoritilishi hamda jahon tajribasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir pedagogik yondashuvlar tahlil qilish muhim sanaladi. Ming afsuslar bo'lsinki, ma'lumotlarga ko'ra dunyoning ayrim mamlakatlari: Jumladan Amerika, Belgiya, Ispaniya, Islandiya, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Portugaliya, Fransiya va Ukraina kabi rivojlangan mamlakatlarda oila, oilaniy muosabatlar va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari kundan-kunga yosharib bormoqda. Biz quyida nomlari ko'rsatilgan ba'zi mamlakatlarning oila, oilaniy muosabatlar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oila mavzusidagi muammolarini tahlil qilib o'tamiz.

Belgiya oilalari va ularning muammolari - Belgiya Yevropadagi rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, undagi oilalar Belgiya jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan hisoblanadi. Belgiyada oilaviy hayot muammolarning keng tarqalishida madaniy xilma-xillik, ijtimoiy himoya tizimi va zamonaviy turmush tarzi masalalari ajralib turadi. Belgiya mamlakatida oilalarining tuzilishi asosan kichik, ya'ni ota-ona va farzandlardan iborat yadro oilalar keng tarqalgan. Shu bilan birga, yolg'iz ota yoki ona boshchiligidagi oilalar, farzandsiz juftliklar ham bu mamlakatda ko'p uchraydi. Belgiyada nikohsiz birga yashash (fuqarolik nikohi) shakli ham keng tarqalgan bo'lib, jamiyat tomonidan nisbatan bu shakl keng qabul qilingan holat hisoblanadi.

Belgiya oilalarining muhim xususiyatlaridan biri - shundakin oilalar davlat tomonidan ko'rsatiladigan kuchli ijtimoiy himoya qilinadi. Hukumat oilalarga bolalar nafaqasi, sog'liqni saqlash xizmatlari va ta'lim imkoniyatlari orqali yordam beradi. Bu esa ko'plab oilalarning hayotini barqaror qilishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, Belgiya oilalarida ham ayrim muammolar mavjud. Ulardan biri - ajralishlar sonining ortib borayotganligi bo'lib ular zamonaviy hayot tarzi, shaxsiy mustaqillikka katta e'tibor berilishi hamda turmush tarzidagi farqlar ayrim oilalarda kelishmovchiliklarga olib kelmoqda. Natijada bu ajralishlar bolalar tarbiyasiga ham sezilarli darajada salbiy ta'sir qilmoqda.

Belgiya jamiyatida madaniy xilma-xillik ham oila va oilaviy muammolarning paydo bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Mamlakatda turli millat va madaniyat vakillari yashaydi. Bu holat jamiyatni boyitish bilan birga ayrim oilalarda madaniy moslashuv muammolarini ham keltirib chiqaradi. Ayniqsa, muhojir oilalar yangi jamiyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli mavjud.

Belgiya davlatida uchraydigan yana bir muhim muammo - ish va oilaviy hayot o'rtasidagi muvozanatning mavjud emasligidir. Ko'plab ota-onalar ishlash bilan band bo'lgani sababli farzandlari bilan yetarli vaqt o'tkaza olmaydi. Ayniqsa, katta shaharlarda yashovchi oilalarda bu holat ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va internet ham oilaviy munosabatlariga sezilarli darajada ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar va o'smirlar ko'p vaqtini telefon va kompyuterda o'tkazishi ota-onalar bilan muloqotni kamayishiga sabab bo'layotgan sabiy muammodir.

Ispaniya oilalari va ularning muammolari - Ispaniya Yevropaning boy tarix va madaniyatga ega davlatlaridan biri bo'lib, undagi oilalar jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Ispaniya oilalarining ko'plab ijobiy tomonlari ham mavjud. Oilaviy birdamlik,

qarindoshlik aloqalarining mustahkamligi va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyati jamiyatning barqarorligiga xizmat qiladi. Ispaniya jamiyatida oila qadriyatlari yuqori baholanadi va ko'plab an'analar aynan oilaviy hayot bilan bog'liq. Biroq zamonaviy davrda Ispaniya oilalari ham turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolarga duch kelmoqda. Bu mamlakatda ko'pincha yadro oilalar, ya'ni ota-ona va farzandlardan iborat kichik oilalar keng tarqalgan. Shunga qaramay, katta avlod vakillari - bobo va buvilar bilan yaqin aloqalar saqlanib qolgan. Ko'plab yoshlar iqtisodiy sabablar tufayli uzoq vaqt ota-onasi bilan birga yashashni davom ettiradi.

Ispaniya jamiyatida oilaviy aloqalar juda mustahkam hisoblanadi. Oila a'zolari bir-birini qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat beradi. Dam olish kunlari yoki bayramlarda qarindoshlar bilan birga vaqt o'tkazish keng tarqalgan an'anadir. Shu bilan birga, Ispaniya oilalarida ham bir qator muammolar mavjud. Ulardan biri - yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi. Ish topishdagi qiyinchiliklar ko'plab yoshlarning mustaqil hayot boshlashini kechiktiradi. Natijada ular uzoq vaqt ota-onasi bilan yashashga majbur bo'ladi. Bu mamlakatdagi yana bir muhim muammo - tug'ilish darajasining pastligi. So'nggi yillarda Ispaniyada ko'plab oilalar kam farzandli bo'lishni afzal ko'rmqda. Buning asosiy sabablari iqtisodiy qiyinchiliklar, ish bilan bandlik va hayot xarajatlarining yuqoriligi bilan bog'liq.

Ispaniyada ham ajralishlar sonining ortishi zamonaviy Ispaniya oilalarida kuzatilayotgan asosiy muammolardan biridir. Ajralishlarning asosiy sababi ulardagi turmush tarzining o'zgarishi, shaxsiy mustaqillikka bo'lgan e'tiborning kuchsizligi va turli ijtimoiy omillar va oilaviy kelishmovchiliklardir.

Ukraina oilalari va ularning muammolari - Ukraina Sharqiy Yevropada joylashgan davlat bo'lib, unda ham oila boshqa davlatlarda bo'lgani kabi jamiyatning muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Ukrainada oilaviy qadriyatlar, o'zaro yordam va qarindoshlik aloqalari katta ahamiyatga ega. Biroq so'nggi yillarda mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar Ukraina oilalarining hayotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ukraina oilalarining tuzilishiga ham boshqa rivojlangan davlatlardagi oilalar shakli o'xshash ya'ni ota-ona va farzandlardan iborat kichik oilalardir.

Ukraina oilalarida uchraydigan eng katta muammolardan biri - iqtisodiy qiyinchiliklardir. Bu mamlakatdagi ish o'rinlarining yetishmasligi va ayrim hududlarda maoshlarning pastligi ko'plab oilalarning moliyaviy ahvoriga ta'sir qiladi. Shu sababli ko'plab ukrainaliklar ish izlab boshqa davlatlarga borishga majbur bo'ladi. Bu holat esa ba'zan oilalarning vaqtincha ajralib yashashiga olib keladi. So'nggi yillarda Ukrainada yuz berayotgan harbiy mojarolar ham oilalarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Urush sababli ko'plab oilalar o'z uyalarini tark etishga majbur bo'lgan, ayrim oilalar esa yaqinlarini yo'qotgan. Bu holat oilaviy hayotga va bolalar tarbiyasiga jiddiy ta'sir qilmoqda.

Bu mamlakatdagi yana bir muhim muammo - aholi sonining kamayishi va tug'ilish darajasining pastligidir. Ko'plab yoshlar iqtisodiy barqarorlik yo'qligi sababli oila qurishni yoki farzand ko'rishni kechiktirmoqda. Ukraina oilalari iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya va urush kabi jiddiy muammolarga duch kelishlarning ko'pligi bu mamlakatdagi ajrimlarning ham ko'payishi olib kelmoqda.

Fransiya oilalari va ularning muammolari - Fransiya Yevropaning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lib, unda oilaviy hayot, farzand tarbiyasi va o'zaro hurmat qadriyatlari muhim o'rin tutadi. Fransiya oilalari rivojlangan ijtimoiy tizim va kuchli oilaviy qadriyatlarga ega bo'lsa-da, ular ham ajralishlar, ish va oila muvozanati hamda zamonaviy hayotning ta'siri kabi muammolarga duch kelmoqda. Shunga qaramay, davlatning ijtimoiy siyosati va jamiyatdagi qo'llab-quvvatlash tizimi oilalarning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Hozirda Fransiya oilalarida ham bir qator muammolar uchramoqda va ulardan biri - ajralishlar sonining ortib borishidir. Turmush o'rtog'lar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, shaxsiy qarashlarning farqlari va zamonaviy hayot tarzining tezligi ba'zi oilalarda nikohning buzilishiga olib keladi. Fransiya ajrimlarning sabablari qatoriga ish va oilaviy hayot o'rtasidagi muvozanatni yuqolishi ham ta'sir qiladi.

Xulosa. Belgiya, Ispaniya va Ukraina kabi mamlakatlar kuchli ijtimoiy tizimga ega bo'lsa-da, ularda ham ajralishlar, ish va oila muvozanati, madaniy moslashuv kabi muammolarga ko'p uchraydi. Shunga qaramay, bu davlatlarning ijtimoiy siyosati va jamiyatdagi qo'llab-quvvatlash tizimi oilalarning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu mamlakatlarda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar boshqa ba'zi mamlakatlarga qaraganda yaxshi ammo bu tukislik ularning hayotiga turli muammolarni ham olib kelmoqda. Shu sababli davlat va jamiyat oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishni bu mamlakatlar oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda va uni tizimli tarzda amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Coleman J.S. Foundations of Social Theory. – Cambridge: Harvard University Press, 1990.
2. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
3. Becker G.S. A Treatise on the Family. – Cambridge: Harvard University Press, 1991.
4. European Commission. Life Skills Education for Youth: European Policy Review. – Brussels, 2018.
5. Park H., Lee J. Family Values and Youth Education in South Korea and Japan. – Tokyo: Springer, 2020.
6. To'xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
7. UNESCO. International Technical Guidance on Sexuality Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.